


Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun | Surxondaryoliklar mustaqilligimizning o'ttiz ikki yilligini katta bayram va shodu-xurramlik bilan nishonladi



Termiz shahridagi “San’at saroyi” amfiteatrida mamlakatimiz mustaqilligining o’ttiz ikki yilligiga bag’ishlangan viloyatning asosiy bayram tantanalari bo’lib o’tdi.

Tadbirda ishlab chiqarish ilg’orlari, fermer va tadbirkorlar, nuroniylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik vakillari, shuningdek, Tojikiston delegatsiyasi ishtirok etdi.

Tantana avvalida Surxondaryo viloyati hokimi Ulug’bek Qosimov mustaqillik yillarida mamlakatimizda erishilgan ulkan natijalar, xususan, viloyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’rifiy hayotida ro’y bergan o’zgarishlar haqida so’z yuritdi. Barchani bayram bilan tabrikladi.

Bayram dasturidan bolajonlar, harbiylar, sportchilar va aktyorlarning chiqishlari, milliy-etnografik guruhlar, san’atkorlar, xususan, O’zbekiston va Qoraqalpog’iston xalq artisti Mahmud Namozov, O’zbekiston xalq artistlari Hosila Rahimova, Rashid Xalikov, shuningdek, estradamiz yulduzlari Baxrom Nazarov, Jasur Mavlonov, Sevinch Ismoilova, Hamdam Sobirov va Rayxon G’anievaning sho’x-shodon kuy-qo’shiqlari tadbirga o’zgacha fayz bag’ishladi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)